

6-Mavzu.Ixtiro va yangilik ochishlar haqida umumiy ma`lumot.Ratsionalizatorlik talabnomasi,ilmiy tavsif va takliflar.

Reja:

- 1.O'zgartirish taklifi.
- 2.Foydali taklif.
- 3.Ixtiro va uning belgilari.
- 4.Qurilma.
- 5.Modda.

1.O'zgartirish taklifi

O'zgartirish taklifi-ma`lum bir korxonaga foyda keltirish maqsadida,shu korxonadagi mahsulot konstruksiyasini,ishlab chiqarish texnologiyasi va qo'llanilayotgan texnikani yoki materiallar tarkibini o'zgartirishga berilgan texnik qarordir.

Berilgan taklif shu korxonada ro'yxatga olingunga qadar noma`lum bo'lsa,yangi texnik qaror deb tan olinadi.Agar taklif tarmoq nozirligiga berilsa,unda bu butun tarmoqda noma`lum bo'lsagina tan olinadi.

Qoidaning 64-punktida qanday takliflarni yangi texnik qaror deb tan olinishini aniq ko'rsatilgan.Unga quyidagilar kiradi:

- oldin bu korxonada ishlatilmaganligi;
- o'zgartirish taklifga ariza beruvchi muallif tomonidan 3 oydan ko'p ishlatilmaganligi;
- shu korxonada ma`muriyati yoki texnik xodimlar tomonidan berilgan ko'rsatmasi yoki buyrug'i bilan bajarilayotgan qarorlardan tashqarilari;
- yuqori tashkilotning tavsiyasi bilan yoki shu tarmoqdagi ilg'or tajribalarni e`lon kilib boruvchi nashriyotlardagi takliflar bilan mos tushmaganlari.

2.Foydali taklif

O'zgartirish taklifini ishlab chiqarishga tadbiiq etilganda yaxshi natija bersa,uni foydali taklif deb tan olinadi.O'zgartirish taklifi iqtisodiy,texnikaviy yoki boshqa tomonlama yaxshi natija berishi mumkin.Masalan,birinchi holatda iqtisod tomondan,ikkinchi holatda iqtisod qilmay ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirish tomonidan,uchinchi holatda esa,ishlab chiqarishga (mahsulot sifatini,ishlab chiqarish xavfsizligini oshirish va boshqalarga) foydali natija berishi mumkin.

Agar o'zgartirish taklifini qo'llanganda mahsulot sifatiga,ishlab chiqarish vositalariga salbiy ta`sir qilsa(qoidaning 65-punkti), ehnat sharoitini qiyinlashtirsa yoki iqtisodiy yaroqsiz bo'lsa,o'zgartirish taklifi deb hisoblanmaydi.

Lekin texnikaviy xarakteri,yangilikligi,foydaliligi-o'zgartirish taklifi uchun zaruriy shartlar hisoblanadi.O'zgartirish taklifini asosiy belgilari:

3. Texnikaviy qarorni yechish.

1. Ishlatilishi mumkin bo'lgan korxonada yangiliklari.

2. Foydaliligi.

3. Ijodiy izlanishi.

4. Ixtiro va uning belgilari

Ixtiro, o'zgartirish taklifi kabi ixtirochilik xuquqi ob'ekti bo'lib, texnika sohasidagi ijodiy harakatning natijasini saqlash xuquqini beradi.

Xalq-xo'jaligida, sotsial-madaniy qurilishida yoki mamlakatning himoyalash sohasida ishlayotgan har qanday unumli texnikaviy qarordan yaxshi va sezilarli farqlansa, bunday texnik qarorni ixtiro deb tan olinadi (qoidaning 21-punkt).

Xalq-xo'jaligi-bu ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa, savdo va boshqalardir. Sotsial madaniy qurilishga xalq xo'jaligi va mamlakatning himoyalash sohalaridan tashqari quyidagilar kiradi (qoidaning 21-punkti): sog'liqni saqlash, o'quv-ta'limi, san'at, sport. Bu sohada qilinadigan ixtirolarga quyidagicha misol keltirishimiz mumkin, biror kasalni davolash usulini yoki qurilmasini yoki qilichbozlikda qilich uchini tegishini hisoblovchi qurilma yaratilsa va boshqalar.

Mamlakatning himoyalash sohasiga hamma turdagi qo'shinlar va ularga mo'ljallangan harbiy texnikalarni yaratish va takomillashtirish kiradi.

Ixtiro yuqorida sanab o'tilgan sohalarning biriga tegishli bo'lgan, biror masalani yechishga qaratilgan bo'ladi. U texnikaviy qaror hisoblanadi. Lekin har qanday texnikaviy qarorni ham ixtiro deb tan olinavermaydi. Qachonki u quyidagi talablarni bajargandagina tan olinishi mumkin:

1. Yangi.

2. Sezirlari farqlanishi.

3. Foyda berishi kerak.

Ixtiroga berilgan birinchi arizaning berilgan kunigacha, texnik qarorning mazmuni ariza berilgan mamlakatda yoki boshqa chegara orti mamlakatlaridagi noma'lum kishilar orasida ham uni amalga oshirish mumkinligi darajasida ochilmagan bo'lsa, uni yangi deb hisoblanadi, ya'ni ixtiroga ariza bermasdan, uni ochiq e'lon qilish, namoyish qilish yoki ishlatish yangiligini yo'qotishga olib keladi. Shuning uchun oldin ariza berib, so'ng uning mazmunini ochish mumkin.

Agar texnik qarorning mazmuni ba'zi bir kishilarga (muallifning hamkasabalariga, texnik komissiyaga, yuqori tashkilot rahbariga) ma'lum bo'lsa, u o'z yangiligini saqlaydi.

Ixtironing asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

-texnik qarorning yechimi;

-yangiligi;

-sezilarli farqlanishi;

-foydaliligi;

-shu mamlakatining xalq xo'jaligida qo'llanish imkoniyati.

Ixtiro, usha vaqtdagi zamonaviy texnika (yoki usul, yoki modda) ga nisbatan yangi bo'lsa tan olinishi mumkin. Bunday yangilikni *absolyut* (dunyo bo'yicha) yangi deb ataladi. Demak, uni boshqa mamlakatlarda ham tan olinadi.

Ixtiro fan va texnikada mavjud bo'lgan texnik yechimlar bilan solishtirib ko'rilganda, ularga nisbatan foydali belgilari bo'lsa, sezilarli farqlangan deyiladi. Bunda har xil variantlar bo'lishi mumkin.

-Ixtiro to'la yangi belgilardan iborat bo'lishi mumkin.

-Ixtironing bir qismi yangi, bir qismi ma'lum bo'lgan belgilardan iborat bo'lishi mumkin.

-Ixtiro to'la ma'lum bo'lgan belgilardan iborat bo'lib, ma'lum bo'lmagan usulda ishlatilgan bo'lishi mumkin.

Bundan ko'rinadiki, ixtironing yangiligini mavjud bo'lgan texnika darajasiga solishtirib aniqlanishi mumkin. Biroq ular sezilarli farqlanmasligi ham mumkin ekan.

Ixtironing belgilaridan yana biri foydaliligidir. U ixtironi qo'llanilganda keltirilgan aniq foydadan iborat bo'ladi, bunga ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, mahsulot ishlab chiqarishni ortishi, mahsulot sifatini ortishi, texnika xavfsizligini yaxshilanishi va boshqalar kiradi. Ba'zi bir hollarda foydalilik iqtisod keltirmasdan boshqa tomondan yaxshi natija berishi mumkin. Masalan, ishlash sharoitini yaxshilash.

Shuning uchun ixtironing foydaliligini mavjud bo'lganlari bilan solishtirib ko'rib aniqlanadi.

Har bir ixtironing ob'ekti bo'lib, u yordamida topshiriqni yechiladi. Ixtironing ob'ektiga quyidagilar kiradi: yangi qurilma, yangi usul, yangi modda, ma'lum bo'lgan usulni, moddani, qurilmani yangi joyda ishlatish (qoidaning 21-punkti).

5. Qurilma

Qurilma - alohida element yoki bir biri bilan har xil bog'lanish hosil qilgan elementlardan

iboratdir, bularga: mashinalar, apparatlar, o'rnatgichlar, asboblari, moslamalar va ularning detallari kiradi.

Usullarga xom ashyo va materiallarga ishlov berish jarayoni, kimyoviy va boshqa xildagi moddalarni tayyorlash, har xil o'simliklarni o'stirish, kasallarni davolash va boshqalar kiradi. Yangi usul kerakli natijani olish uchun, belgilangan yangi tartibdan ishlatilishga qarab aniq harakatlar ketma-ketligidan iborat bo'ladi.

6. Modda

Modda - element va ingredientlarning o'zaro bog'lanishidan sun'iy tayyorlangan materiallar birikmasidan iborat. Unga qorishmalar, qotishmalar, kimyoviy birikmalar va boshqalar kiradi.

Yangi modda tarkibidagi hamma ingredientlarning o'zini yangiligi bilan yoki ma'lum bo'lgan ingredientlarni qancha miqdorda qo'shilishi bilan farqlanishi mumkin.

Ixtiro ikki xil bo'lishi mumkin: asosiy va qo'shimcha. Asosiy ixtiro boshqa ixtirolarga yuridik bog'liq bo'lmaydi va o'zi qo'llanishi mumkin. Qo'shimcha ixtironi esa asosiy ixtironi butuniga yoki qisman takomilashtirib, asosiy ixtirosiz qo'llab bo'lmaydi.

Agar asosiy ixtiroga birinchi berilgan arizadan boshlab, shu mamlakatdagi belgilangan muddatdan, uning (mualliflik xuquqi yoki patentining) muddati o'tgan bo'lsa, unda qo'shimcha ixtiro asosiy ixtiro deb hisoblanadi (qoidaning 36-punkti).

Yuqorida ko'rib o'tilganlardan ko'rinadiki har qanday yangilik ham ixtiro bo'lmas ekan. Qoidada qanday yangiliklarni ixtiro bo'la olmasligini qatori keltirilgan. Masalan:

- xalq xo'jaligini boshqarish va uyushtirish usullari;

- har xil turdagi qoidalar (yul harakati, o'yin va boshqa qoidalar);

- maydonlarni, uylarni, inshootlarni loyihalash va rejalashtirish sxemalari;

- tarbiyalash, o'qitish, dars berish, til o'rgatish va boshqalarning usul va sistemasi.

Bilish darajasiga tubdan o'zgartiruvchi, oldin noma'lum lekin dunyoda mavjud bo'lgan qonun, xossa va hodisalarni topish yangilik ochish deb tan olinadi (qoidaning 10-punkti). Har bir yangilik ochish dunyoni bilib olishni kengaytiradi va chuqurlashtiradi. U o'sha vaqtgacha fanga noma'lum bo'lgan savolga javob bo'ladi. Bundan ko'rinadiki yanligikni ilmiy-qidiruv ishlarini natijasi deb qarash mumkin.

Har bir ochilgan yangilikning alohida ob'ekti bor. Dunyoda oldin noma'lum bo'lgan hodisa, xossa yoki qonun ochilgan yangilikning ob'ekti hisoblanadi. Xodisa – dunyodagi ob'ektni paydo bo'lish formasi; xossa – dunyodagi ob'ektning sifat tomonini bildiradi; qonun – dunyodagi hodisa yoki xossalar orasidagi sezilarli mustahkam aloqa.

Yangilikni kim oldin e'lon qilgan bo'lsa, o'sha ochgan deb hisoblanadi, ya'ni qachonki yangilikni ochib birinchi arizani jo'natib e'lon qilmay, undan oldin ham e'lon qilish mumkin.

Tayanch so'z va iborolar

-O'zgartirish taklifi, yangi texnik qaror, ixtiro, xalq xo'jaligi, ixtiroga ariza berish, foydali ixtiro, mashina va apparat qurilmalari, kimyoviy birikmalar, asosiy va qo'shimcha ixtiro, yangilik.

Nazorat savollari.

1. O'zgartirish taklifi nima, uning foydaliligi, o'zgartirish taklifining qanday belgilari mavjud.

2. Ixtiro nima, hamda uning ahamiyati.

3.Ixtiro belgilarini tushuntiring.

4.Modda nima.

5.Qurilma nima.